

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.A.Saparbayeva

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar
yozish qobiliyatini shakllantirish..... 313

H.M.Asadov

Mavzu, mazmun va lirk qahramon talqini 318

A.A.Yarkulov

Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar 322

H.A.Djurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov

Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni 329

J.DJ.Ashurov, E.X.Bozorov

Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini
o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash 332

D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova

Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari 336

M.I.Imomaliyeva

Amiriy ijodida Yusuf obrazi 339

G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova

Inson tabiatini va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari 343

N.Maqsudov

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi 345

S.A.Olimjonov

Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin 347

Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva

O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti 351

I.S.Mannopov

Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri 354

AMIRIY IJODIDA YUSUF OBRAZI

ОБРАЗ ЮСУФА В ТВОРЕНИИ АМИРА

IMAGE OF YUSUF IN AMIR'S CREATION

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi¹¹Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

– O'zR FA tayanch-doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqola Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan Yusuf obrazi, xususan, Qo'qon adabiy muhitining asoschisi shoh va shoir Umarxon Amiri ijodida ushbu obraxning badiiy talqinlari tahillilar asosida yoritilgan. Tadqiqotda psixologik, sistem-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalaniilgan. Buning natijasida shoir haqidagi fikrlarning umumlanishiga, to'ldirilishiga erishildi. Amiriyning so'z qo'llash mahorati betakror bo'lib, ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'ladi.

Аннотация

В данной статье на основе анализа рассматривается образ Юсуфа, широко распространенный в восточной классической литературе, в частности художественная интерпретация этого образа в творчестве шаха и поэта Умархана Амири, основателя коканской литературной среды. В исследовании использовались психологические, системно-структурные, сравнительно-типологические методы. В результате мысли о поэте были обобщены и завершены. Использование слов Амири уникально и послужило основой для многих исследований.

Abstract

In this article, the image of Yusuf, which is widespread in Eastern classical literature, in particular, the artistic interpretation of this image in the work of Shah and poet Umarkhan Amiri, the founder of the Koqan literary environment, is covered based on the analysis. Psychological, system-structural, comparative-typological methods were used in the research. As a result, the thoughts about the poet were summarized and completed. Amiri's use of words is unique and provides the basis for many studies.

Kalit so'zlar: Amiri, tasavvuf, obraz, Qur'on, qissa, Yusuf, Ya'qub, Zulayho, ma'shuqa, oshiq, an'ana, mahorat.

Ключевые слова: Амири, суфизм, образ, Коран, рассказ, Юсуф, Якуб, Зулаиха, любовник, любовница, традиция, мастерство.

Key words: Amiri, Sufism, image, Qur'an, story, Yusuf, Ya'qub, Zulayha, lover, tradition, skill.

KIRISH

Yusuf – Sharq adabiyotida keng tarqalgan obrazdir. Bu obraz dastlab "Tavrot" va "Inji"da, so'ngra "Qur'oni karim"da o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf nihoyatda go'zal, olilianob, dono shaxs sifatida tasvirlanadi. Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham Yusuf obrazi uchun "Qur'on" poydevor hisoblanadi. Yusuf tarixiy shaxs va badiiy obraz sifatida ham odamzod uchun qaysidir jihatlari bilan ibrat bo'lmog'i lozim edi. Shuning uchun Yusufning ishq, hajr, tuhmat, razolat, kibr, qo'yingki, qismat va hayotning barcha mashaqqatlari sinovlaridagi saboti uni qadrdon bir timsol-siyymoga aylanadir. Inson va borliqqa muhabbat Haqning husniga oshiqlik, deb qaraladi. Bu talqin nubuvvat xaylining ham barchasiga taalluqli bo'lsa-da, ular badiiy adabiyotda Yusuf singari "husnobod" timsoliga majoz tarzida emas, balki tarixiy shaxs sifatida tasvir etiladi. Fikrimizcha, Yusuf timsolida ishq mazharini idrok etish masalasi, shubhasiz, tasavvuf adabiyotidagi badiiy talqin mahsulidir. Sharq adabiyotida payg'ambarlar ichida faqat Yusufgina shunday talqiniga sazovor bo'lgan timsoldir. Sharq adabiyoti haqiqat talqiniga mos va xos majoz ifodasini tayin etganligi hamda ular orasidagi monandlik, uyg'unlik, mantiq birligini ta'minlaganligi bilan ham betakrordir. Bunda Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyoti lirik tasvirlarda haqiqatning majoz ifodasi uchun may, jom, soqiy, yuz, xol, xat, lab, zulf kabi ramz timsollaridan qanday foydalangan bo'lsa, epik talqinlarda Yusuf, Farhod, Majnun, Layli, Vomiq singari obrazlardan ham shunday foydalaniadi. Turkiy mumtoz she'riyatida bu mavzuga murojaat etmagan shoirni uchratish amrimaholdir. Lekin umumiy tarzda olib qaralganda, Atoiy, Alisher Navoiy va Amiri she'riyatida bu obraz talqini boshqalarga qaraganda faolroq bo'lib ko'rindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«Obraz» termini rus tilidan olingan bo'lib, «aks» degan ma'noni anglatadi. Adabiyotshunoslik istilohi sifatida «obraz» deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obraz nazarda tutiladi. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi” [4,63]. Obrazlar davr va zamon bilan bog'liq bo'ladi. Diniy obrazlarning talqinida har bir davrning g'oyaviy

motivlari o'ziga xos o'rin tutadi. Islom dini kirib kelgach, adabiyotda diniy obrazlarga murojaat qilish yangicha yo'sin kasb etdi. Adabiyotga "Qur'oni karim"da zikr qilingan payg'ambarlar, solih kishilar, islam olamida mashhur bo'lgan mutasavvuf ulamolar obrazi kirib keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, diniy obrazlarning turlicha talqiniga guvoh bo'lamiz. Xususan, shoir ijodida Yusuf a.s. obraziga murojaatni 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Go'zal mahbubaga ishora.
2. Yor husniga asir oshiqqa ishora.
3. Qul qilib sotilgan Yusuf a.s.ning o'ziga ishora.

"Qur'oni karim"dagi "qissalarning afzali" bo'lgan Yusuf surasi ishq mavzuida ekanligi, boshdan-oxir oshiq va ma'shuq sarguzashtlariga bag'ishlanganligi, nihoyatda ta'sirchanligi va jozibadorligi tufayli barcha toifanining e'tiborini birday jalb qilib kelgan. U asrlar davomida qalam ahliga ham ayricha ilhom bag'ishlab, bu mavzuda yuzlab dostonlar bitilgan. Ma'shuqa husnini Yusuf go'zalligiga nisbat berish, uni Yusufi soniy – ikkinchi Yusuf deb atash, ba'zida hatto undan ustun qo'yish mumtoz adabiyotda bir ana'ana tusini olgan. Ishqu oshiqlik mavzuida she'r bitgan shoir borki, Yusuf va Zulayho ismini, ularning sevgi dostonini albatta tilga olgan (Hatto Sharq shoirlari, xususan, Xo'ja Hofiz ta'sirida "G'arbu Sharq devoni"ni yaratib, G'arb adabiyotiga Sharq ruhini olib kirgan buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Gyote ham o'zini – Hotam, ma'shuqasini – Zulayho nomlari bilan atab, ko'plab sharqona she'rlar ijod qilgani ma'lum). Qaysi Sharq shoirining devonini qo'lingizga olmang, talmeh san'ati vositasida unga ishora qilingan ko'plab baytlarga duch kelasiz" [2,143]. Jumladan, quyidagi Amiriy "Men telbani junun Misrida yalang'och holda ko'rsangiz ustidan kulmang, chunki malakka o'xshagan Yusufim, ya'ni mahbubam barcha mahvashlarning a'losidir" deya, ma'shuqasini husnda toq o'laroq ta'rif-tavsif etadi:

*Junun Misrida uryon ko'rsangiz, man telbaga kulmang,
Malakovash Yusufimdur barcha mahvashlarning a'losi [1,331].*

Ya'qub a.s. "Qur'oni karim"da zikr etilgan payg'ambarlardandir. "Go'zal qissa" deb ta'riflanuvchi ushbu surada asosan Ya'qub (a. s.) ning 12 o'g'li va Yusuf (a.s.) ning boshidan kechirgan voqealarini aks ettiriladi. Surada otalik va birodarlik mehri, ishq-muhabbat, ayollar makri, tush ta'biri, saxiylik va kechirimi bo'lish kabi insoniy xususiyatlarni ajib uslubda o'z ifodasini topgan. Qur'onda bir yuz o'n bir oyatdan iborat bu sura Makkada nozil bo'lgan va payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi suralardan biridir. Unda asosan Allohning payg'ambarlaridan Yusuf ibn Ya'qubning hayoti zikr qilinib, u zotning boshiga tushgan balolar, og'a-inilari va begonalardan ko'rgan kulfatlari – chohga tashlanganlari, tuhmatga yo'liqanlari, zindonband bo'lganlari haqida va bunday og'ir ko'rgilklarga sabr-toqat qilishlari natijasida oxir-oqibat zindon azobidan xalos qilinib, butun Misr zaminining mulk-u xazinasiga ega bo'lganlari xususida so'z boradi. "Rabg'uziy bu qissaning ahsan (go'zal) deyilishi sababini quyidagicha izohlaydi:

- 1) Qur'onidagi boshqa hamma qissalardan foydasi ko'proq ekanligi;
- 2) Qissa boshdan oxir, bir qavlda qirq yil, boshqa birida sakson yil ichida bo'lib o'tgan voqealarini o'z ichiga olganligi;
- 3) Qur'oni karimda boshqa qissalar turli oyat va suralarda, Yusuf qissasi esa faqat bir oyat – "Yusuf" surasida kelganligi;
- 4) Boshqa qissalarda voqealar begona odamlar orasida yuz berganligi;
- 5) Qissada uch hol: rohatda va mashaqqatlarda Allohga itoatda, xaloyiq orasida ezgu muomalada, yaxshi va yomon kayfiyatda bo'lganda bag'ri keng, ochiq bo'lmox borligi;
- 6) Yusufning o'z og'alari bilan ezgu muomalala qilganligi. ularning jafosiga sabr-bardoshli bo'lganligi;
- 7) Qissaning avvali tush, o'rtasi tush va oxirida ham tush ko'rish borligi;
- 8) Qissaning ishq bilan tamom bo'lganligi;
- 9) Rasul alayhissalomning bu sura haqida aytgan quyidagi gaplari.

"Kimki o'n turli baloga yo'liqsa o'n surani o'qisin": vasvasaga tushsa, "Alhamdu" surasini; o'g'rilardan qutulayin desa, "Surat ul-baqara"ni; qashshoqlikdan qutulayin desa, "Oli Imron"ni; qayg'u ko'ngildan ketsin desa, "Surat ul-anom"ni; nifoq ko'nglumdan chiqsin desa, «Surat ul-anfol»ni;

ILMIY AXBOROT

achchig'im tarqalsin desa, "Surat ul-asr"ni; qayg'u menga harom bo'lsin desa, "Alam nashrah"ni; kufr va shirk menden kesin desa, "Surat ul-ixlos"ni; jodudan omonlik tilasa, "Surat ul-mu'avvizatayin"ni – bularning hammasidan qutulishni istasa, "Yusuf" surasini o'qisin.

Suraning "ahsan ul-qisas" (qissaning go'zali) deyilish sababini yana boshqa fazilatlari bilan ham izohlaydilar" [3,4-10]. Bu sura Hud surasidan keyin – Muhammad alayhissalom hayotlarining eng qora kunlarida – yaqinlari Hadicha va Abu Tolibdan ajragan, mushriklar tomonidan ozor-aziyatlar chekib, qiynalib yurgan kezlarida nozil bo'lgandir. Go'yo Alloh taolo o'zining suyukli payg'ambariga va qolaversa, u zotning barcha ummatlariga, agar boshlariga tushgan baloyu kulfatlarga va diyonatsiz kimsalarning zulmu zo'ravonliklariga sabr-qanoat qilib o'zlarining haq yo'lidagi kurashlaridan tolmay, Allohning dinidan qolmay sobitqadam bo'lsalar, Parvardigori olam ularni zulmatlardan va tanglikdan xalos qilib, nurli, baxt-saodatli kunlarga yetkazajagini uqtirayotgandek. Bu suraning nazmiy uslubida o'zgacha latofat, ayricha joziba mayjudki, islam olamidagi eng buyuk qalam ahllari undan mutaassir bo'lib, she'ru dostonlar bitganlar, ulamolar esa bu sura xususida jild-jild kitoblar tasnif etganlar. "Yusuf" surasining 84-oyatida uning o'z o'g'llari sabab eng suyukli farzandi Yusuf a.s. dan ayrilib qolgani uchun g'am chekib, ko'zları ojiz bo'lib qolganligi aytildi: "Va ulardan yuz o'girdi hamda : "Oh Yusuf" deb ko'zlariga oq tushdi [Yusuf surasi, 84 -oyat]. Mumtoz adabiyotimizda "Bayt ul-hazan" g'am uyi atamasi Yaqub a.s ga nisbatan qo'llaniladi.

Amiriy Yaqub a.s. bilan bog'liq yuqoridaq voqeani baytga asos qilib oladi va bunda hijron azoblarida qiyalgan oshiq holati, kayfiyati Yaqub a.s. holatiga qiyoslanganini quyidagi baytlarda kuzatish mumkin:

*Tun-u kun Yusufim shavgida go'yo piri Kan'ondek,
Ko'zum yoshuni man ham bekoran ummona bengzatdim [1,231].*

Yusuf a.s. qissasini kuzatar ekanmiz, uning ko'pgina sinovlarga duch kelishligini ko'ramiz. Dastlab, yosh paytida quduqqa tashlanadi, keyinchalik Misr azizining uyidagi imtihonlar, keyin esa zindondagi azoblari, oxirida barcha ne'matlar ortig'i bilan berilishini ko'ramiz. Oshiq ham ilohiy ishq yo'lida sabr ila harakatda bo'lar ekan, bir kun yor vasliga erishishiga ishorat qiladi. Yuqoridaq baytda esa oshiqning holati Yusufmas, balki Ya'qub a.s. ga qiyoslanib, Yaqub a.s.ning ko'p yillik ayrılıq holatidan keyin farzandiga yetishishiga qiyoslanmoqda. Qur'oni karimda, Payg'ambarlar qissalariga keng urg'u berilgan bo'lib, shular ichida Yusuf a.s qissasi to'liqligi bir sura shaklida ekanligi ham qissaning naqadar ajib ekanligiga dalolat qiladi. Yusufni akalari hasaddan undan qutulishga harakat qiladilar. Ulardan biri uni quduqqa tashlash taklifini aytadi va ular Yusuf a.s. ni quduqqa tashlaydilar. Qur'oni karimning "Yusuf" surasining 15-oyatida Yusuf a.s ni akalari hasaddan chohga tashlashlari berilgan: "Uni olib ketib quduqqa tashlashga qaror qilganlarida, Biz unga: "Sen, albatta, ularga bu qilmishlarining xabarini berursan, o'shanda ular seni sezmaslar ham" deb vahiy qildik". Ya'ni quduqda qalbi xavfga to'lgan holatdagi yosh Yusufga Alloh kelajakdagisi ishlarni bo'lishini Alloh Yusuf a.s.ga oldindan bashorat bermoqda.

Amiriy ijodida o'zining keng tasvirini topgan Yusuf obrazi orqali haqiqiy ishqning ham, majoziy ishqning ham talqinini ko'rish mumkin. Xususan, quyidagi baytda oshiqning sog'inch holati har ikki mohiyatga yetaklaydi:

*Sabab bo'lg'aymukin bu charx zoliyu solig'a , yo Rab,
Ko'ray deb Yusufimni ,piri Kan'onimni sog'indim [1,234].*

Yusuf obrazi mumtoz adabiyotda talqin jihatidan turlicha yo'sinda beriladi. Xususan, Amiriy ijodida ham o'zgacha talqinlarda uchraydi. Alloh taolo har bir payg'ambariga o'ziga xos bo'lgan jihat ato etgan. Shuningdek, Alloh taolo chiroyni yaratgan va teng yarmi Yusuf alayhissalomga bergen edi. Qolgan yarmi barcha maxluqotlar, insonlarga berilgan edi. Yusuf a.s.ning chiroyi Qur'oni karimning 12-surasi 31-oyatida shunday keltirilgan: "...Uni ko'rgan chog'lارida lol qoldilar, qo'llarini kesdilar. Va :"Alloh saqlasin! Bu bashar emas! Bu karamli farishtaning o'zi-ku! – deyishdi". Bu yerda uni ko'rganlar aqlo hushlaridan ketib, o'zlarining qo'llarini kesib tashlash darajasiga borganliklarini bilish mumkin. Amiriy quyidagi baytda Alloh taoloning chiroyining naqadar buyukligini anglatish uchun, bandasi va payg'ambari bo'lgan Yusuf a.s.ni keltirmoqda. Yusuf a.s. jon mulkining "moh-i

tamomi” – yer yuzidagi jamiki maxluqotlarning barchasidan chiroy jihatidan afzal ekanligi anglashiladi va quyidagi baytda ham ushbu jihat ifoda etilgan:

*Oftobi husni poking etti dunyog'a tulu',
Xo'blug'da Yusufi Kan'oni bekor aylagon [1,254].*

Amiri Yusuf a.s. obrazi orqali betakror chiroy sohibi sifatida husnda tengsiz go'zal mahbuba timsoliga ishora qilsa, quduqqa tashlanib, asirlikda qolishi e'tiboridan yorning zanaxdoniga tushib, uning asiriga aylangan oshiqqa ishora qiladi. Xususan, Misr malikasining unga xaridor bo'lishi-yu, Yusufning nafs yo'liga kirmasdan, to'g'rilik va qat'iyat yo'lida sobit qolishi, turli xil to'sig'u sitamlarga bardosh berishi tahsinga sazovor.

*Latofat Misri ichra Yusufi Kan'on kabi, ey jon,
Xaridoring Zulayho bo'lsa, bozoringdan aylansun [1,278].*

Amiri g'azallaridan birida ma'shuqasini husn mulkining amiri deb ta'riflaydi va ayni jihatdan unga Yusufi Soniy, ya'ni Ikkinch Yuusuf sifatini beradi:

*Amiri husnsan, dodim eshitgil, Yusufi Soniy,
Bu ummid ila qurdum shohrohing uzra bir koza [1,305].*

Boshqa bir baytida esa yori ko'rkin ko'rib, malohat timsoli bo'lgan Yusuf ham tahsin o'qigani, uning ishqiga sabr aylagan joniga qoyil qolgani haqida so'z boradiki, hatto Yusufni husnda mot qilgan mahbuba o'z-o'zidan jamol va komil sohibi Alloh taolodir:

*Dedi Yusuf ko'rub yorimni: "Jononingg'a sallamno!
Aning ishqig'a toqat aylag'an joningg'a sallamno!" [1,44]*

“Diniy-tasavvufiy adabiyotlarda aytishicha, Olloh taolo husnni yuz hissa qilgan. To'qson to'qqiz qismini Momo Havoga berib, bir qismini butun dunyo ahliga ravo ko'rgan. Shu bir ulushni yana o'nga bo'lib, to'qqiz qismini Yusuf alayhissalomga va bir qismini bani basharga bergan. Endi tasavvur qilavering: Yusuf alayhissalomda butun insoniyatda mayjud husndan to'qqiz barobar ortiq husn bor”. Lekin Yusuf ham qullari qatorida bo'lgan ma'shuqa o'z-o'zidan Alloh taolodir:

*Ul parital'atki sultondur malohat mulkida,
Yusufi Misriy muhaqqar qullari sonidadur [1,96].*

XULOSA

Ma'lum bo'ladiki, Amiri ham ko'pchilik Sharq so'z san'atkorlari kabi o'z badiiy maqsadi ifodasi uchun Yusuf obrazidan mahorat bilan foydalangan. Shoir ijodida bu obraz goh Yusuf alayhissalomning o'zi, goh husnda toq ma'shuqa, goh ilohiy mahbuba timsoli bo'lib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Amiri. Devon. II. O'zbekcha she'rlar (Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). – T.: "Tamaddun", 2017. Amiri. Devon. II. Uzbek poems (Preparers for publication: A. Madaminov, E. Ochilov, Z. Qobilova, O. Davlatov). - T.: "Civilization", 2017.
2. Imam Ismoil al-Buxoriy, Al-jome' as-sahih (1-jild), Qomuslar bosh tahririyati, Toshkent -1997. Imam Ismail al-Bukhari, Al-jame' as-sahih (Volume 1), Qomuslar editor-in-chief, Tashkent - 1997.
3. Nasiruddin Burhanuddin Rabg'uziy.Qisasi Rabg'uziy.2-kitob.Toshkent-1991. Nasiruddin Burhanuddin Rabguzi. The story of Rabguzi. Book 2. Tashkent-1991.
4. Ochilov E. Bir hovuch dur. – T.: "O'zbekiston", 2011. Ochilov E. A handful. - T.: "Uzbekistan", 2011.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2010. Kuronov D. Introduction to literary studies. - T.: People's Heritage Publishing House named after A. Qadiri, 2010.
6. "Qur'oni karim" o'zbekcha izohli tarjima.Toshkent-1992. "Qur'an Karim" Uzbek annotated translation. Tashkent-1992.
7. Tohirov Q. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. – Sam.: 2001. Tahirov Q. The text and research of the folk story "Yusuf and Zulayha". - Sam.: 2001.